NODAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARI BUXGALTERIYA HISOBIDA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH BO‘LIMLARI VA ULARNING VAZIFALARI

Shamsikulova Moxina Bonu Furkatovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instiuti
moxina0909@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlarni amalga oshirish uchun tashkil etilgan bo‘limlar, ularning tarkibiy tuzilishi hamda ushbu bo‘limlarning buxgalteriya hisobi ob’ektlari sifatidagi vazifalari bayon etilgan. Shuningdek, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarida qatanshadigan omborxona va umumiy xizmat ko‘rsatish bo‘limlarining tavsifi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *nodavlat tibbiyot tashkilotlari, tibbiy xizmatlar, tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi bo‘limlar, oshxona bo‘limi, umumiy xizmat ko‘rsatish bo‘limi, tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobi, tibbiy xizmatlarga oid harajatlar buxgalteriya hisobi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются подразделения негосударственных медицинских организаций, созданные для оказания медицинских услуг, их структура и роль как объектов бухгалтерского учета. Также описываются складские и вспомогательные службы, участвующие в процессе предоставления медицинских услуг.*

Ключевые слова: *негосударственные медицинские организации, медицинские услуги, подразделения по оказанию медицинских услуг, служба питания, служба хозяйственного обеспечения, учет медицинских услуг, учет затрат на медицинские услуги.*


Abstract. *This article outlines the departments established within non-state medical organizations to provide medical services, their structural composition, and their roles as objects of accounting. It also describes the warehouse and general service departments involved in the medical service delivery process.*

Keywords: *non-state medical organizations, medical services, medical service departments, catering department, general service department, medical service accounting, accounting for medical service costs.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish to‘g‘risida”[27]gi Qarorlari va boshqa shu kabi normativ-huquqiy hujjatlarda nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish faoliyatini rivojlantirish, bunda tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ushbu vazifalar nodavlat tibbiyot tashkilotlarida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida tibbiy xizmatlar tannarxini pasaytirish orqali xizmatlar narxini optimallashtirishni va nodavlat tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishdan olinadigan daromadlari ulushini oshirishni, ushbu ko‘rsatkichlarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri yoritish orqali tibbiy xizmatlarga oid axborotlar shaffofligini ta’minlashni dolzarb qilib belgilab beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida tibbiyot sohasida ko‘p tarmoqli tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish faoliyat bilan shug‘ullanuvchi nodavlat tibbiyot tashkilotlarining tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlari va ushbu jarayonlar buxgalteriya hisobi yuritilishiga doir ilmiy izlanishlar olib borildi. Tadqiqot ishida mazkur nodavlat tibbiyot tashkilotlarining amaliy ma’lumotlari asosida tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida ushbu sub’ektlar tomonidan amalga oshirilib kelinayotgan tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlari tadqiq etildi hamda quyida keltirilgan rasm ko‘rinishida ifodalandi (1-rasmga qarang):

[27] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish to‘g‘risida”gi Qarori. 2017 yil 29 dekabr. PQ-3450-son.



1-rasm. Tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘limlari tarkibi[28]

Nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlari buxgalteriya hisobini tashkil etish bir qancha o‘ziga xos ahamiyat kasb etadigan jihatlarni qamrab oladi. Tadqiqot ishida nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonlari buxgalteriya hisobini tashkil etishda omborxonalar, tibbiy xizmat ko‘rsatish hamda umumiy xizmat ko‘rsatish bo‘limlari buxgalteriya hisobi ob’ektlari sifatida tanlab olindi.

Nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish jarayonlarida **omborxona bo‘limlarini** tashkil etish jarayonlari ham o‘ziga xos jihatlarga ega. Jumladan, tadqiqotlar davomida aniq bo‘ldiki, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarida foydalaniladigan materiallar uch xil turdagi omborxonalarga saqlanadi. Mazkur xususiyatlar inobatga olingan holda ushbu ilmiy-tadqiqot ishida nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlari buxgalteriya hisobini tashkil etish maqsadida tashkilot omborxona bo‘limlarini uchta qismga

[28] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

ajratish maqsadga muvofiq deb topildi. Bundan tashqari, ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish uchun ham nodavlat tibbiyot tashkilotlarida yana alohida oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash maqsadida omborxona tashkil etilishi mumkin. Nodavlat tibbiyot tashkilotlarida bu kabi omborxonalar va ularning vazifalari quyida keltirildi:

1. Laboratoriya materiallarini saqlash omborxonasini tashkil etishdan asosiy maqsad nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tashkil etish, jumladan diagnostika xizmatlarini ko‘rsatishda eng zarur bo‘lgan materiallarni saqlash bo‘lib hisoblanadi. Tadqiqotlar davomida guvoh bo‘lindiki, diagnostika xizmatlari tarkibidagi laboratoriya diagnostikasi xizmatlarini tashkil etish, jumladan uning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadigan bioximiya laboratoriya xizmatlarini tashkil etish ko‘p jihatdan ta’minot jarayonlari bilan bog‘liqdir. Chunki, ushbu tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda bemor tomonidan topshiriladigan tahlillar natijalarini tez fursatda chiqarish maqsadida foydalaniladigan turli xil kimyoviy modda va aralashmalardan foydalanilib, ushbu jarayonlar tibbiy reabilitatsiya jarayonlarini ko‘rsatishga eng asosiy jarayonlardan biri sifatida xizmat qiladi.

2. Nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini tashkil etishda eng muhim bo‘limlardan yana biri bu dori vositalarini saqlash omborxonasi hisoblanadi. Tibbiy xizmatlar ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan dori vositalarini saqlash uchun mo‘ljallangan mazkur omborxona nodavlat tibbiyot tashkilotlarida barcha turdagi tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish jarayonlarida qatnashadi. Nodavlat tibbiyot tashkilotlarida ushbu omborxonada saqlanadigan materiallar tibbiy xizmatlarga oid materiallar sarfining asosini tashkil etadi. Shuning uchun, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarini tashkil etishda tibbiyot tashkilotlarini dori vositalari bilan ta’minlash muhim bo‘lib xizmat qilib, har bir tibbiy xizmatlar tannarxiga dori vositalari bo‘yicha harajatlarni moddiy harajatlar sifatida hisobga olishni hamda dori vositalari buxgalteriya hisobini yuritishni zaruriyat qilib qo‘yadi.

3. Xo‘jalik jihozlarini saqlash omborxonasi barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda bo‘lgani kabi, mazkur tibbiyot tashkilotlarida ham xo‘jalik jihozlarini saqlash maqsadida tashkil etiladi. Ushbu omborxonaning asosiy vazifalari tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarini amalga oshirishda zarur bo‘ladigan inventarlar va boshqa yordamchi materiallarni saqlash bo‘lib hisoblanadi.

Nodavlat tibbiyot tashkilotlari buxgalteriya hisobida bir oyda bir marotaba ushbu omborxona bo‘limlari bo‘yicha materiallar sarfini hisobga olish jarayonlari amalga oshiriladi. Bunda, nodavlat tibbiyot tashkilotlarining ombor mudirlari tomonidan dalolatnoma tarzida tuzilgan buxgalteriya registrlari harajatlar buxgalteriya hisobini yuritishda asos bo‘luvchi hujjat vazifasini bajaradi.

Nodavlat tibbiyot tashkilotlarida yana bir muhim xo‘jaliklar faoliyat ko‘rsatadi va ushbu xo‘jaliklar biz tomonimizdan umumiy xizmat ko‘rsatish bo‘limlari deb nomlandi.

1. Umumiy xizmat ko‘rsatish bo‘limlari tarkibida kichik tibbiyot xodimlari bo‘limini tashkil etish buxgalteriya hisobida alohida ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Chunki, mazkur xodimlarning barchasi bir vaqtning o‘zida tibbiy xizmat turlarining hammasida ishtirok etishi mumkin. Tashkilotlarda ushbu bo‘limning eng asosiy vazifalariga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarini tashkil etishda muhim bo‘lgan sanitariya-tozalik xizmatlarini ko‘rsatish, tibbiy chiqindilarni maxsus idishlarga joylashtirish orqali utilizatsiya jarayonlarini amalga oshirish kabi vazifalar kiradi.

2. Nodavlat tibbiyot tashkilotlarida ovqatlanish xizmatlari ham tashkil etilib, ushbu xizmatlar ayniqsa ko‘p tarmoqli tibbiy xizmatlarni amalga oshiruvchi sub’ektlar faoliyatida keng uchraydi. Nodavlat tibbiyot tashkilotlarida ushbu xizmatlarni tashkil etish oshxona bo‘limi zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, statsionar tibbiy xizmatlarini ko‘rsatishda eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Faqatgina, statsionar tibbiy xizmatlarga xizmat ko‘rsatadigan ushbu bo‘lim buxgalteriya hisobining tashkil etilishi nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlarga oid harajatlar buxgalteriya hisobini tashkil etishda muhim dastak vazifasini bajaradi. Shuning uchun, oshxona bo‘limi bo‘yicha harajatlar ham aynan statsionar tibbiy xizmatlar tannarxiga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

3. Umumiy xizmat ko‘rsatish bo‘limlarining navbatdagisi bu yordamchi xo‘jalik bo‘limi hisoblanib, mazkur bo‘lim nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish jarayonini tashkil etishda muhim bo‘lgan jarayonlar, jumladan tibbiy asbob-uskunalarni ta’mirlash, elektr ta’minoti va isitish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni bajarishda xizmat qiladi. Ushbu bo‘lim bo‘yicha harajatlar buxgalteriya hisobida xuddi boshqa umumiy xizmat ko‘rsatuvchi bo‘limlar kabi tibbiy xizmatlar tannarxiga olib boriladigan bilvosita harajatlar sifatida tan olinadi.

Nodavlat tibbiyot tashkilotlarida ushbu umumiy xizmat ko‘rsatuvchi bo‘limlar bo‘yicha harajatlar buxgalteriya hisobini alohida yuritish va ushbu bilvosita harajatlarni tibbiy xizmatlar tannarxiga taqsimlashning eng optimal usullarini qo‘llash orqali har biri tibbiy xizmat tulari ob’ektlari bo‘yicha tannarxni aniq hisob-kitob qilish mazkur tarmoq tashkilotlari buxgalteriya hisobi oldidagi eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish to‘g‘risida”gi Qarori. 2017 yil 29 dekabr. PQ-3450-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga tibbiy yordam ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori. 2017 yil 05 sentyabr. 696-son.

3. Boronov B.F. Yog‘-moy mahsulotlari hisobi metodologiyasini takomillashtirish. –T.: TMI, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, 2023, 244 b.